

Sifatli ta'lif - kuchli jamiyat: Surxondaryoda II Ustozlar milliy forumi o'tkazildi



Bugun Termiz shahridagi muhtasham San'at saroyida “II Ustozlar milliy forumi” bo'lib o'tdi. Tadbir san'at maktablari o'quvchilarining bayramona chiqishlari, sport maktablarida yetishib chiqqan sportchi-yoshlар, kitobxon va rassom, ijodkor va san'atkor yoshlarning ijodiy chiqishlari bilan boshlandi.

Milliy forumda viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ishtirok etib, tadbirda jam bo'lgan 700 dan ortiq muallimlar orqali vohamizdagi barcha pedagoglarni mustaqilligimizning o'ttiz ikki yillik bayrami hamda “Bilimlar kuni” bilan tabrikladi. Shuningdek, tizimda so'nggi yillarda olib borilgan keng ko'lamlı ishlar haqida to'xtalib, viloyatdagi 965 ta mакtabda qariyb 532 ming o'quvchiga 45 mingdan ortiq o'qituvchi va murabbiylar ta'lif-tarbiya berib kelayotgani hamda ularning 3 508 nafari oliy toifali o'qituvchilar ekani, bu ko'rsatkich so'nggi olti yilda qariyb to'rt barobarga oshganligini ta'kidladi.

Tadbirda ta'lif-tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan, ta'lif tizimini rivojlantirishga munosib hissa qo'shayotgan, faol, tashabbuskor va izlanuvchan, munosib natijalarga erishayotgan 30 nafar pedagoglar, muallim va murabbiylarimiz viloyat hokimining faxriy yorliqlari va sovg'alari bilan taqdirlandi.

Taqdirlash marosimida sohada ko'p yillardan buyon mehnat qilib kelayotgan faxriy ustozlar so'zga chiqib, ta'lif tizimiga qaratilayotgan e'tibor xususida, pedagog kasbining jamiyat, kelajak avlod oldidagi mas'uliyati haqida so'z yuritdilar.

Viloyatning taniqli san'atkoriлari ishtirokidagi kontsert dasturi tadbir ishtirokchilariga yanada ko'tarinkilik bag'ishladi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)